

**ETNOMADANIY TADQIQOTLAR VA UNING TILDA NAMOYON BO‘LISHI:
LINGVISTIK VA LINGVODIDAKTIK JIHATLARI**

*S. Azimova*¹

Annotatsiya:

Maqolada etnomadaniyatning mazmun mohiyati va uning tilda namoyon bo‘lishida lingvistika yani tilshinoslikning o‘rni va ahamiyati yoritilib berilgan. Lingvodidaktikning nafaqat etnomadaniyatga balki ulkan bir soha hisonlangan etnologiyadagi tutgan o‘rni haqidagi fikrlar va g‘oyalar keltirilib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Etnomadaniyat, etnolog, lingvistika, psixolingvistika, etnolingvistika, lingvodidaktika

doi: <https://doi.org/10.2024/ncnqst79>

Bugungi shiddatli va yangiliklarga to‘la asrimizda etnomadaniyatni tutgan o‘rni beqiyosdir. Etnomadaniyat (lotin tilidan olingan bo‘lib “xalq” degan ma‘noni bildiradi) xalqlarning asrlar davomida uning o‘zligini anglash, ana‘naviy turmush hayoti, urf-odatlar va manaviyatining o‘sib borishini o‘rganuvchi zamin vazifasini bajaradi. Etnologlarning ko‘plab tadqiqotlariga ko‘ra insoniyat ijtimoiy davrdan boshlab hozirgacha rivojlanib borayotganligining asosiy sabablaridan biri qo‘shni etnoslarni o‘rganib ular bilan tajriba almashishligidir. Shuni aytish joizki qadimda ham buyuk filosof va tarixchilar boshqa mamlakatlarga borib ularning etnomadaniyatlarini o‘rganib yozib qoldirishgan va keraklarini o‘zlarining xalqiga tadbiiq qilishgan. Albatta bu tilni ham chetlab o‘tmagan, til millat kaliti bo‘lib millatni tilsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Buyuk ma‘rifatparvar bobomiz Abdullo Avloniy til haqida quyidagicha fikrlarini birdirib o‘tganlar “Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurg‘on oyina hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur”. Etnomadaniyat bevota til va psixologiyaga bog‘liq bo‘lib, bunda shaxsning xulq-atvori, psixologik qiyofasi, milliy xususiyatlari va etnik umumiylikni o‘rganuvchi tarmoq hisoblanadi. Etnomadaniyat ko‘plab sohalar xususan etnografiya, sotsiologiya, antropologiya, san‘atshunoslik va lingvistika bilan bevosita bog‘liq. Xalqlarning til birligini, muloqot maromini va so‘zlashish jarayonlarini o‘rganishda lingvistika sohasiga suyaniladi. Lingvistika jamiyatning asosiy omili hisoblanib, etnoslarni nafaqat tiliga qarab guruhlarga ajratilgan balki tillariga ko‘ra nomlashgan. Lingvistika jamiyatda aloqa quroli hisoblanib tilni tadqiq va tahlil qiluvchi omil hisoblanadi. Tilni o‘rganish jarayonida lingvistika uni o‘n besh tarmoqda namoyon qiladi, bular: dinamik, statik, atomistic, structural, sinxronik, diaxronik, ekstralingvistika, makrolingvistika, mikrolingvistika, paralingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika, etnolingvistika, matematika lingvistika va

¹ *Azimova Sitara Shokirovna, SamDCHTning Ingliz tili filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti I-kurs magistranti*

neyrolingvistika. Etnomadaniyatga bevosita bog‘liq bo‘lgan tarmoqlar : psixolingvistika hamda etnolingvistikalaridir. Psixolingvistika psixologiya va lingvistika fanlarni umumlashtiruvchi tarmoq hisoblanib, bunda nutq jarayonida uning mazmun jihatdan yo‘naltirilgan nuqtasini anglatadigan bo‘lim hisoblanadi. Tabiiyki tildagi har bir so‘zning kamida uchta yo to‘rtta sinonimlari mavjud bo‘lib, nutq davomida gap aynan qaysi ma‘noda ekanligini esa uning psixologik mazmuni orqali bemalol anglab yetishimiz mumkun. Etnolingvistika esa etnografiya va lingvistika fanlarining bir maydonda tadqiq qilish tushuniladi. Etnografida qadimgi etnoslarning ana‘naviy turmush tarzi va tarixiy manbalari keltirilsa, etnolingvistikada ularning bevosita tilga bo‘g‘liq bo‘lgan tarixiy rivojlanishi, millatlarning avvalambor tilga uzviy bog‘liqliligini yaqqol ko‘rsatib beruvchi tarmoqdir. Lingvodidaktika lotincha “lingvo”- til, yunoncha “didaktikos”- o‘rgatish degan ma‘nolarni anglatadi. Lingvodidaktika til o‘rgatishning nazariyasi bo‘lib, manbalarda lingvometodik deb ham yuritilgan .M.R.Lwov bu atamani quyidagi izohlaydi: “Bu ona tili yoki chet tilini o‘qitish metodikasidir, bu atama ko‘pincha lingvodidaktik maqolalarda rus tilini milliy maktablarida o‘qitish metodikasida qo‘llaniladi.” Etnomadaniy tadqiqotlar va uning tilda namoyon bo‘lishida lingvistika va lingvodiddaktikaning o‘rni beqiyos bo‘lib , bunda etnoslarning kelib chiqishida ularning tili muhim vazifani kasb etib, tili orqali ularning dini, madaniyati, urf-odatlarini hamda jamiyatidagi siyosiy tizimlarni va qo‘shni etnoslar orasida mavqeini aniqlash mumkun. Shu boisdan etnolingvistika etnomadaniyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Lingvodidaktika esa o‘sha tilni o‘rganish jarayonini tezlashtiruvchi metodlarni o‘rgatuvchi qismi hisoblanadi. Etnomadaniy tadqiqotlarning tub mohiyati bevosita va bilvosita antropolog va arxeologlarning tadqiqotlar natijasida olib boriladi. Tarixchi etnograf hamda faylasuf olim I.M.Jabborovning quyida keltirilgan fikrlari shu so‘zimizga yaqqol dalil bo‘lib xizmat qiladi: “Tarixiy merosimizni o‘rganish faqat ilmiy jihatdan kata ahamiyat kashf etibgina qolmay, ayni vaqda buyuk ajdodlarimiz yaratgan ma‘naviy xazinadan bahramand bo‘lishda, ijtimoiy-siyosiy muammolarni hal qilishda va insonning har tamonlama kamol topishida muhim omil hisoblanadi” . Etnomadaniyat tadqiqotlari haqida fikr yurutar ekanmiz dastlab etnos yani xalq yoki millatning madaniyati haqidagi izlanish ekanini ilgari surish lozim A. Asqarovning ta’kidlashicha “Etnos bu shunchaki biologic hosila emas balki ijtimoiy hodisadir”. Har bir etnos uzining tarixini va madaniyatini yaratuvchanlik xususiyatiga ega bo‘lib, yillar davomida yosh avlod vakillari tomonidan qabul qilinib keyinchalik esa urf-odat va odob-axloq darajasiga o‘tib boruvchi omildir. Bundan shu narsa ayonki madaniyat har bir xalqning jamiyatdagi ustuvorligini ko‘rsatib turuvchi hamda ularni bir birlaridan ajratib turuvchi tizim vazifasidir. Etnomadaniyat tadqiqotlaridan biz shuni bilishimiz mumkunki etnoslar orasida madaniyat almashuvi va o‘z madaniyatini saqlab qolish tushunchasi yillar davomida saqlanib kelgan. Yani hozirgi davrni olib qaraydigan bo‘lsak, Angliya madaniyati Yevropa madaniyatlari orasika aristokrat hisoblanib bir yevropalik shu madaniyatga taqlid qiluvchilardandir. Ammo oliy toifadagi har yevropaliklar tarixdan bilamizki qadimda yagona bayroq Anglo davlati ostida uzoq asrlar yashashgan, natijada qo‘shni etnoslar orasida hukmron va moddiy jihatdan ham ustuvor sanalgan angliyaliklarning madaniyati o‘z-o‘zidan jamiyat tomonidan etirof etila boshlagan va bu hodisa hozirgacha o‘z tasirini yuqotmagan desak xato bo‘lmaydi. Ammo madaniyatni saqlab qolish tushunchasi esa bu millatni saqlab qolish tushunchasi bilan bir xil ifada etib boriladi, sababi har bir xalqning odatiy

turmush tarzidan tortib to an'anaviy marosimlarigacha ularning kelib chiqish tarixidan darak beruvchi tarixiy hodisa bo'lib ,agar ularga etibor berilmasa yaqin kelajakda bu etnosning yuqolib borish fojeasi bilan ham tugashi mumkin. Madaniyat almashinuvi yani hukmron madaniyatni o'ziga moslashtirib va to'g'ri keladiganini o'zining etnosiga targ'ib qilish bu jahon madaniyatiga moslashish va negizida o'zligini yo'qotmaslik g'oyasini ilgari surishdir. Xuddi shu tartibda etnoslar o'rtasida tilning ahamiyati,bunda ko'pincha ko'ptillilik misol bo'la oladi. XXI asrning ustuvor tillaridan biri bo'lgan ingliz tili jahon miqiyosida eng ko'p ishlatiladigan tildir. Hozirda butun jahon yoshlari mufaqqiyatli karyera boshlash uchun avvalo ingliz tilini o'rganishi lozim va bu ustuvorlik albatta madaniyat ustuvorligi bilan chabarchas bog'liq. Etnomadaniyatning shu jihatlari ham madaniyatni va ham tilni chuqur bilishni talab etadi. Lingvistikani chuqur o'rganish uchun bizga lingvodidaktik metodlarning borligi ayni muddao bo'ladi. Lingvodidaktikaning nazariyalari malum bir etnosning tilini o'rganuvchi uskuna desak ham adashamagan bo'lamiz. Lingvodidaktik metodlari lingvistikani anglashdagi zina vazifasini bajaradi. Shuning uchun lingvistikaning ajralmas metodlari bilan biz har bir qadimgi etnosning ulkan bir tarixiga guvoh bo'lib, insoniyatning ibtidoiy davrdan qanday qilib hozirgi rivojlangan holatga yetib kelgunga qadar say harakatlari haqida aniq dalil isbotlarga ega bo'lishimiz mumkun. Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki etnomadaniyatni tadqiq qilish va uni tilda namoyon etish uchun lingvistikani lingvodidaktika bilan ajralmagan holatda chuqur o'rganish va etnoslarning madaniyati orqali tilini, tili orqali esa butun bir etnosni tarixini o'rganish mumkun.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Axmanova O.S.Slovar lingvistik terminov-M.1996
 - [2]. "Zamonaviy lingvodidaktika prinsiplari va integratsiyasining nazariy asoslari" Nomozova Zarnigor Abdumo'minova-2022 №2
 - [3]. "Milliy qadriyatlar va transformatsion jarayonlar" o'quv qo'llanmasi - Toshkent 2015
 - [4]. Academic Research in Educational Sciences- volume 3 issue 11 2022
 - [5]. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi- 2000-2005
 - [6]. Antik madaniyat va ma'naviyat xazinasini Jabborov I.- T.O'zbekiston-1999
- 3-bet